

BO'LAJAK TIBBIYOT XODIMLARI KASBIY MADANIYATINI AKMEOLOGIK YONDOSHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

ПЕДАГОГО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФОРМИ- РОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ НА ОСНОВЕ АКМЕОЛОГИ- ЧЕСКОГО ПОДХОДА

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF FORMING THE PROFESSIONAL CULTURE OF FUTURE MEDICAL WORKERS BASED ON THE ACMEOLOGICAL APPROACH

XAYITOVA SHAHNOZA DANIYAROVNA
Samarqand davlat tibbiyot universiteti dotsenti

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiy oliy ta'lim tizimida akmeologik yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi akmeologik yondashuvning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish hamda uni oliy tibbiy ta'lim amaliyotiga joriy etish bo'yicha samarali tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Natijalarda akmeologik yondashuvning talabalar shaxsiy va professional rivojlanishiga, ularning yuksak kasbiy mahorat cho'qqilariga erishishiga ijobiy ta'sir ko'rsatish tizimi va usullari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: Akmeologik yondashuv, refleksiv kompetentlik, pedagogik shart-sharoitlar, oliy ta'lim, shaxsiy rivojlanish, professional kompetentlik.

Аннотация. В данной статье анализируются психолого-педагогические условия формирования профессиональной культуры будущих специалистов на основе акмеологического подхода в системе высшего медицинского образования. Основная цель исследования заключается в изучении теоретико-методологических основ акмеологического подхода и разработке эффективных рекомендаций по его внедрению в практику. В результатах обоснованы методы и системы влияния акмеологического подхода на личностное и профессиональное развитие студентов, а также на достижение ими вершин профессионального мастерства.

Ключевые слова: Акмеологический подход, рефлексивная компетентность, педагогические условия, высшее образование, личностное развитие, профессиональная компетентность.

Abstract. This article analyzes the pedagogical and psychological conditions for forming the professional culture of future specialists based on the acmeological approach in the higher medical education system. The main objective of the study is to examine the theoretical and methodological foundations of the acmeological approach and to develop effective recommendations for its practical implementation. The findings substantiate the methods and systems demonstrating the positive impact of the acmeological approach on students' personal and professional development, as well as on achieving the heights of professional mastery.

Keywords: Akmeologik yondashuv, refleksiv kompetentlik, pedagogik shart-sharoitlar, oliy ta'lim, shaxsiy rivojlanish, professional kompetentlik.

KIRISH. Respublikamizda mustaqillik yillarida kadrlar tayyorlashning yangi tizimi yaratilib, mutaxassislar sifatiga qo'yiladigan zamonaviy talablarga javob beradigan yuqori malakali, raqobatbardosh, tanlagan ta'lim yo'nalishi bo'yicha mustaqil ishlay oladigan, mamlakatning ilmiy-texnik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishiga munosib hissa qo'shishga qodir, jadal ilgarilayotgan ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyot sharoitiga moslasha oladigan, yuksak madaniy va ma'naviy-axloqiy sifatlarga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlash izchil amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimining dolzarb muammolaridan biri yosh kadrlarni tayyorlash hisoblanadi. Bugungi kunda, bo'lajak tibbiyot xodimlarida kasbiy sifatlarni rivojlantirishning yangi yo'llari, metod va shakllarini izlash va ularni takomillashtirish bo'yicha katta hajmdagi ishlar amalga oshirilmoqda. Kasbiy faoliyatini boshlayotgan shifokorning boshqa zaruriy professional sifatlari uchun poydevor vazifasini bajaradigan asosiy sifatlardan biri bu kasbiy ma'daniyatdir. Aynan shuning uchun bizning fikrimizcha, munosib shifokorlarni tayyorlash ishlari ushbu mutaxassislikda tahsil olayotgan talabalarda kasbiy ma'daniyatini rivojlantirishdan boshlanishi lozim.

Mamlakatimiz so'nggi yillarda talabalarning kasbiy kompetensiyalariga kasbiy faoliyatning ajralmas qismi sifatida qarash, kasbiy sifatlarini rivojlantirish modellarini takomillashtirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar va boshqa tashkilotlarning samarali faoliyatini tashkil etish" ustuvor vazifa etib belgilandi. Shu

asosda, yosh avlodni mustaqil fikrlaydigan zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni puxta egallab, xalqaro maydonda raqobatga kirisha oladigan barkamol shaxslar etib tarbiyalash imkoniyati yanada kengaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Akmeologik yondashuv asosida ta'lim jarayonini loyihalash asosida talabalarda yuqori darajadagi insoniy munosabatda bo'lishini talab qiladi. Buning uchun pedagog ajdodlarimizning insonparvarlikka asoslangan o'qitish tizimini tashkil etishga oid ko'p asrlik tajribalarini o'zlashtirgan bo'lishlari kerak. Chunki akmeologik yondashuv asosidagi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'z tarkibida insonparvarlik, demokratiya va har bir shaxsga nisbatan oliy qadriyat sifatida munosabatda bo'lish g'oyasini mujassamlashtiradi. Bunday qarashlar dastlab ajdodlarimizning ustoz-shogird haqidagi qarashlarida o'z ifodasini topganligini bo'lajak shifokor ongiga yetkazish talab etiladi. Bu g'oyalar o'tmishda Arastu, Suqrot, Platon, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Abduxoliq G'ijduvoniy, Bahovuddin Naqshband, Shayx Xovan Tohur, Xo'ja Ahror Valiy, Shayx Najmiddin Kubro, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi allomalarning qarashlarida o'z ifodasini topgan.

Kasbiy faoliyatda shaxsga insonparvar munosabatda bo'lishning zamonaviy talqini J.G'.Yo'ldoshev, R.G'.Safarova, S.Nishonova, B.Adizov, Sh.Qurbanov, E.Seytxalilov, F.Yuzlikaev, N.A.Alekseev, Yu.V.Sharonin, Ye.V.Bondarevskaya, I.A.Kolesnikova, V.V.Serikov, I.S.Yakimanskaya kabi olimlarning izlanishlarida o'z ifodasini topgan.

Hozirgi paytda puxta o'ylangan, ilmiy asoslangan davlat siyosati vositasida mamlakatimiz fuqarolarining tabiiy

qobiliyati, bilimi, malakasi, kasb-hunarga layoqati va say-harakatlaridan oqilona foydalanish uchun qulay zamin yaratish, shuningdek, mustaqil O'zbekistonning ravnaq topishida ularning ehtiyojlari, ijtimoiy manfaatlari, hayotiy istiqbollarini belgilab olish va ro'yobga chiqarish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vazifalarni amalga oshirishda yuksak bilimli, yetuk professional kadrlarni ahloqiy kamolot ruhida shakllantirish, mamlakatimiz ravnaqi hamda gullabyashnashi uchun xizmat qiladigan akmeshaxslarni vujudga keltirish ustuvor vazifalarimizdan biriga aylanib bormoqda. Ushbu mexanizmlardan biri – inson akmeologik kompetensiyalarini rivojlantirish, undan oqilona foydalanishning yangicha yo'llarini izlab topish, ya'ni o'ta muhim yechimlaridan biri – akmeologiyani ijtimoiy ahloqiy muammolarining ilmiy muomalaga kirib kelishidir.

Shu bois, akmeologiyani predmeti individ, shaxs individual faoliyatning barcha sohalarida erishgan maksimal yetukligi bo'lmog'i lozim (A.A.Bodalyov, N.V.Kuzmina, A.A.Derkach va boshqalar), degan qat'iy konsepsiya yuzaga keldi. Maksimal yetuklik individ, shaxs rivojining cho'qqisi va individual faoliyat bilan bog'liq ekan, demak ana shu cho'qqi yunonchada "acme" deyiladi va bu soha akmeologiya deb yuritiladi. Shu bilan birga, "acme"da insonning faoliyati bilan bog'liq holatlar ham nazarda tutiladi. Jumladan, shaxsning "yulduzli" onlari yoki shunga yaqin jarayonlar, ya'ni biror-bir sohada erishgan oliy yutuqlari (N.V.Kuzmina).

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yunonlar, insonning nimagaki qodir bo'lsa, qobiliyati va imkoniyati qirralarini ko'rsatishga xizmat qiladigan barcha yetuklik belgilari namoyon bo'lgan

umrining shu qismini "acme" deb ataganlar. Akme – yunoncha ("yuksalish", "cho'qqi") kamolot, yetuklik ma'nolarini anglatadi. Akmeolog mutaxassislar shaxsning yuksak professionalizmi va ijodiy mahorati muammolarini oqilona yechishni muhim inson resurslaridan foydalanishda deb bilmoqdalar. Bu degani, ularni integrativ-kompleks o'rganish muhimlik g'oyasini ilgari suradilar.

Bizning fikrimizcha, faqatgina kasbiy yuksaklikka erishish g'oyasi bilan chegaralanish muammoning yechimiga olib kelishi mushkul. Yetakchi faylasuf olim Xatima Shayxova bu borada: "Akmeologiya – zamonaviy yangi fan. Uning muhim vazifasi muayyan kasb-korlikning yuksak pog'onaga ko'tarilishidagi turli jihatlarini o'rganishdir. Akmeologik yondashuvning mazmun-mohiyati – insonning har bir kasb-hunarni bilim orqali chuqur egallashi, uning jamiyat rivoji, millat ravnaqi, turmush farovonligi hamda ijtimoiy taraqqiyotning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-huquqiy jihatlariga ijobiy ta'sirini kuchaytirishga xizmat qilishini chuqur anglashi, o'z ijodiy faoliyatini, kasb-hunar sohasidagi burch va mas'uliyatini ado etishga sarflash maqsadida mukammallik va kamolotga erishishni o'rganishdan iborat", deydi.

Bizningcha esa, akmeologiya tabiiy, umumjamo'a va insoniy qoidalar asosida nafaqat kasbiy mahoratning yuksak muvaffaqiyatga erishishi, balki insonning yetuklik bosqichida ham ruhan, ham ijtimoiy rivojlanish qonunlari va mexanizmlari, ijtimoiy, ruhiy yuksaklikka erishish darajalari fenomenologiyasini o'rganish haqidagi fandir. Bunda biz Sharq allomalarining "komil inson" g'oyalarini akmeologiyani ob'ekti "akmeshaxs" tushunchasi bilan bir qatorda tadqiq etgan holda, ushbu fanning fundamenti Markaziy

Osiyo mutafakkirlarining qo'lyozmalarida o'z ifodasini topgan va bugungi kunda bizning mamlakatimizda keng foydalanilmoqda, desak, aslo adashmaymiz.

Bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning milliy tizimlarini batafsil tahlil qilish va kasbiy tayyorgarlikning quyidagi asosiy xususiyatlarini aniqladik.



– bo'lajak mutaxassislarini tayyorlashda pedagogik amaliyot komponentini kengaytirish (seminarlar va o'qitish uchun ajratilgan soatlar sonini ko'paytirish orqali);

– amaliyot dasturlarini ishlab chiqish;

– universitet dasturlaridan (bakalavr, magistr) pedagogik kurslarga o'tish;

– oliy ta'lim muassasalarining eng yaxshi bitiruvchilarini kasbiy faoliyatga jalb qilish, pedagogik mutaxassisliklar bo'yicha ishga qabul qilish uchun tanlov qoidalarini kuchaytirish;

– oliy ta'lim muassasasida o'qishdan tortib, kasbiy martaba tugagunga qadar uzluksiz kasbiy rivojlanish tizimlarini yaratish vazifasini ustuvorlashtirish;

– ta'lim jarayonida ishtirokchilarning tizimli o'zaro ta'sirini o'z ichiga olgan kasbiy rivojlanish dasturlarini o'rta ta'lim

muassasalariga o'tkazish.

So'nggi paytlarda ko'plab tadqiqotchilar bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida Internetda mavjud bo'lgan resurslarni amaliy qo'llashga e'tibor qaratmoqdalar. Xususan olimlar bo'lajak mutaxassislarning professional kompetensiyasini shakllantirishda internet platformalarining resurs va funksional imkoniyatlarini ko'rib chiqadi. Tadqiqot mualliflari ushbu veb-saytdan o'zlarining professional tayyorgarligi amaliyotida foydalanish shartlarini aniqladi. Bo'lajak mutaxassislarning kommunikativ madaniyatini shakllantirish uchun Internet resurslaridan foydalanish kerak, deb hisoblaydi. Internet resurslari zamonaviy jamiyatni axborotlashtirish sharoitida alohida ahamiyatga ega bo'lib bormoqda

va bugungi kunda bo'lajak mutaxassislarni professional tayyorlash uchun zarur vositaga aylanmoqda. Biz bo'lajak mutaxassisning kasbiy tayyorgarligi bo'lajak mutaxassisning pedagogik faoliyat funksiyalarini bajarishi uchun uning qadriyat yo'nalishlarini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik tizim ekanligini asoslaymiz. Ushbu tayyorgarlikning tizimli yaxlitligi va uning umumiy, maxsus, individual va aniq-sub'yektning organik birligidagi protseduraviy uzluksizligi haqidagi tezisga

asoslanib, tadqiqotchi yuqorida aytib o'tilgan jihatlarni aniqlaydi.

Umuman olganda, bunday tayyorgarlikni jamiyat rivojlanishining o'ziga xos tarixiy sharoitlari bilan belgilanadigan, zamonaviy tendentsiyalarni, oliy pedagogik maktablarda bo'lajak mutaxassislarni bosqichma-bosqich tayyorlashning mahalliy va xorijiy tajribasini hisobga oladigan uzluksiz pedagogik ta'limning tarkibiy qismi deb hisoblaydi.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. Abdullayeva, D. Pedagogik akmeologiya asosida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash mexanizmlari. Toshkent: Fan nashriyoti, 2023.
2. Abdullina, O. Professional Pedagogical Competence in Higher Education. Moscow: Pedagogika Press, 2022.
3. Askarova, M. Ta'lim tizimida akmeologik yondashuvning nazariy asoslari. Samarqand: SamDU nashriyoti, 2022.
4. Ganieva, S. Akmeologik kompetensiyalarni rivojlantirish texnologiyalari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2025.